

AHMAD DONISH ASARLARIDA O'LKA TARIXINING BAYON QILINISHI VA FANLARGA DOIR BILIMLARNING YORITILISHI**To'rayev Anvar Ismoilovich**

Osiyo xalqaro universiteti, Tarix va filologiya kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15531317>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrdagi O'rta Osiyoda rivojlangan tarixiy jarayonlar, Ahmad Donish asarlaridagi astronomiya, geografiya, tabiatshunoslik va tarbiyashunoslikka oid ma'lumotlar turli adabiyot va tadqiqotlarga tayangan holda yoritildi.

Аннотация. В данной статье на основе различной литературы и исследований освещены исторические процессы, развивавшиеся в Средней Азии в XIX веке, сведения по астрономии, географии, естествознанию и образованию в трудах Ахмада Дониша.

Abstract. This article, based on various literature and research, highlights the historical processes that developed in Central Asia in the 19th century, information on astronomy, geography, natural science and education in the works of Ahmad Donish.

Kirish. Falsafiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlari chuqur hamda keng qamrovda egallagan ma'rifatpar olim-Ahmad Donish (Ahmad Kalla, Ahmadi Maxdum, Ahmad Devona singari nomlar bilan ham mashhur) 1826-yil Buxoroda mudarris oilasida tug'ilgan, boshlang'ich savodni onasidan so'ng maktab va fan doir ilmiy bilimlarni madrasada olgan. Madrasada o'qib yurgan kezlarda xattotlik, rassomlik, naqqoshlikni yaxshi bilgan, munajjimlik ilmini puxta egallaganligi tufayli amir Nasrullo nazariga tushgan. Ma'rifatparvar olim 1857, 1869, 1874 yillarda Buxoro amiri elchilari tarkibida Rossiya imperiyasining poytaxti Peterburgda bo'ladi hamda imperator davlatining idora usuli va rus xalqi madaniyati bilan yaqidan tanishadi. Ahmad Donish bizga o'ndan ortiq ilmiy asarlarni meros sifatida qoldirgan bo'lib, ular ichida "Risola yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" asarida mang'itlar sulolasidan Amir Doniyolbiydan uning avlodi bo'lmish Amir Abdulahadga qadar siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan Buxoro amirligi qiyofasi aks ettirgan. Ahmad Kalla 1857-yil birinchi marta Peterburg safariga borishi oldidan amir Nasrullo unga topshriq berar ekan: "Sen u yerlardagi ichki vaziyat va davlatlari ahvolini yaxshi o'rgan. Bu haqida oliy dargohga yetkazasan. Har bir mamlakatning tashqi ahvolini savdogarlardan yoki sayyohlardan bilib olamiz" deb tayinlagan[1,6]. Har bir davlat elchisiga yuklatilgan vazifa va talablar singari Ahmad Donishga ham amir tomonidan mamlakat manfaatlaridan kelib chiqqan holda bir nechta topshiriq va vazifalar berilgan edi. Xususan, "risola" da yozishicha, unga amir Nasrullo tomonidan Rossiya impriyasidagi siyosiy va harbiy holat haqida batafsil ma'lumotlar yig'ish, bu o'z navbati amirlikning kelajagi uchun foyda bo'lishi ta'kidlangan[2,66]. U elchi sifatida rahbarlik qilgan shaxslarning noto'g'ri tanlanganini qo'rqmasdan asarida bayon etgan. Olim o'ta bilimdan, rostgo'y, haqiqatga tik boquvchi, adolatparvar, riyokorlik hamda ikkiyuzlamachilikdan yiroq bo'lgan. Ma'rifatparvar o'zining dunyoqarashiga shunday baho bergan: "Men o'zimni taniganimdan beri erkin yurganman, hech qachon, hech mavrida asoratga tushmaganman, saroyga mansub bo'lib, ma'mur va mashur bo'lgan vaqtlarda ham erkinligimni qo'ldan bermay asoratini tan olgan emasman. Podshoga yozgan maktub va arizalarim ham riyokorlik va xushomadgo'ylikdan xoli edi"[3,56], deb qayd etadi. Olimning "Navodir ul-vaqoye", "Risola yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi", "Me'yor-ut tadoyyun" asarlarini tahlil etar ekanmiz uning bu xislatlariga guvoh bo'lamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ahmad Donish shaxsining qomusiyligi turli soha

vakillarining e'tiborida bo'lib, uning faoliyati va yaratgan asarlarini o'rganishga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bunday faoliyat samarasi o'laroq vujudga kelgan ilmiy adabiyotlarni quyidagi guruhlarga ajratib, tahlil qilish maqsadga muvofiq: 1) XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid asarlar; 2) sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar; 3) mustaqillik davrida O'zbekistonda nashr qilingan ishlar; 4) xorijiy mualliflar yaratgan tadqiqotlar.

Natija va muhokamalar. XIX asrda Ahmad Donishni nafaqat Buxoro amirligi, balki butun O'rta Osiyoning "Abu Nasr Farobiyi" deya olamiz. Bunga sabab, uning asarlari juda ko'p sohalarni o'z ichiga olgani, xususan astronomiya, geografiya, munajjimlik, tarix fanlari mukammal tarzda yoritilganini ko'rish mumkin. Ahmad Donishning tarixnavislik yo'nalishidagi mashhur asari "Risola yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" deb nomlanib, ikki qismga bo'lib o'rganish mumkin: Birinchi qismda muallif faqat yozma manbalardan o'qishi yoki mumkin bo'lgan voqealar haqida hikoya qiladi. Unda Amir Doniyol hukmronligining so'nggi yillari va uch amir: Shohmurod, Haydar va Nasrulloning hukmronligi to'g'risida bayon qilingan. Ikkinchi qismda muallif o'zi guvohi bo'lgan voqealar bayoni, Amir Muzaffar (hukmronlik davri: 1860-1885) va Amir Abdulahod (hukmronlik davri: 1885-1910) hukmronlik qilgan davrning tarixiy hodisalarga to'xtalgan. Muqaddima va 7 bobdan iborat asarda muarrix mang'itlar sulolasi tarixining qariyb 138 yillik tarixi tahlil etilgan. Ma'rifatparvarning "Risola yoxud mang'itlar xonadoni qisqacha tarixi" asarining muqaddimasida nafaqat o'tmishimiz haqida balki, astronomiyaga oid bilimlarni ham ko'rish mumkin. Masalan, asarda "Vujudiyot (borliq) Quyosh, Zuhra¹ va Mushtariy² ta'siri natijasida bo'lsa, adamiyot (yo'qlik) Mirrix³, Zuh⁴ va Oy a'siritijalari keltirib o'tilgan. Atorud⁵ ularning barchasiga taluqli bo'lgan holatda, o'sha ta'sir qaysi yulduzning xosiyati bo'lganda, uning ma'dani hisoblangan. Atorud yulduzi tik kelganda (Yerga) ziyon va nuqson yetkazadi. Bu yulduzlar osmon burjlari darajalarida noqislik va barokot keltiruvchi holda tursa, shunga ko'ra ularning ta'siri kamayadi yoki ko'payadi [4,144]. Asarda munajjimlik haqida ham ma'lumot bo'lib, unda agar muayyan bir vaqtda Mushtariy mijoziga falak va yulduzlarda bir vaziyat to'g'ri kelsa, dunyoda ming yilgacha taraqqiyot, adolatu ehson hukm suradi, o'sha jarayonda Zuh⁴ yulduzi to'g'ri kelsa, ming yil vayrongarchilik, ocharchilik va nuqson yuzaga kelishiga olib keladi deb ta'kidlagan[5,45]. Bu orqali Donishning munajjimlik ilmi chuqurligini ham ko'ramiz.

XIX asr Buxoroda yashab, ilm-fan va madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan, "Donish" taxallusi bilan ijod qilgan Ahmad ibn Mir Mansur ibn Yusuf al-Hanafiy as-Siddiqiy al-

¹ Zuhra (Venera) – Zuhra so'zining kelib chiqishi va ma'nosi "Zuhra" (arabcha: الزهرة – Az-Zuhra) so'zi "yorqin", "nur sochuvchi" yoki "porloq" degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu nom sayyoraning osmonda juda yorqin ko'rinishi bilan bog'liq bo'lib, u Quyosh va Oydan keyin eng yorqin osmon jismlaridan biri hisoblanadi. Quyosh sistemasidagi ikkinchi sayyora bo'lib, yerga eng yaqin va o'xshash sayyora hisoblanadi.

² "Mushtariy" so'zi arabcha "مشتري" (Mushtariy) dan olingan bo'lib, u "sotib oluvchi" yoki "savdogar" ma'nolarini anglatadi. Bu nom qadimgi astronomik va astrologik an'analarga borib taqaladi, chunki Sharq madaniyatlarida sayyoralar ko'pincha ularning harakatlari yoki ta'siriga qarab nomlangan. Quyosh tizimidagi eng yirik yupiter sayyorasi bo'lib, quyosh atrofini 12 yilda 1 marta aylanib chiqadi.

³ "Mirrix" – arabcha "المريخ" (Al-Mirrix) so'zidan olingan bo'lib, u "qizil sayyora" yoki "qizil yulduz" ma'nosini anglatadi.

⁴ "Zuh⁴" – arabcha "زحل" (Zuh⁴) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "chekinuvchi" yoki "olislashuvchi" ma'nolarini anglatadi. Bunga sabab, qadimgi arab astronomlari Zuhalni osmonda eng uzoq va sekin harakat qiluvchi sayyoralardan biri sifatida kuzatishgan. Yevropa tillarida esa bu sayyora "Saturn" deb ataladi. Bu nom qadimgi Rim mifologiyasidagi Saturnus (dehqonchilik va vaqt xudosi) nomidan kelib chiqqan. Yunon mifologiyasida esa Saturn Kronos (Zevsning otasi) bilan bog'liq. Quyosh tizimidagi oltinchi sayyora va hajmi bo'yicha Mushtariydan keyin ikkinchi yirik sayyoradir. U gaz giganti bo'lib, asosan vodorod va geliy gazlaridan tashkil topgan.

⁵ Atorud (arabcha: عطارد 'Uṭārid) — arab va fors manbalarida Merkuriy sayyorasiga berilgan nom. Bu nom qadimgi astronomlar tomonidan ishlatilgan va Sharq ilmiy an'analari keng tarqalgan.

Buxoriyning o'ziga xos siyosiy qarashlari ham mavjud bo'lgan. Mutafakkir O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan zabt etilishi va Buxoro amirligi mag'lubiyatga uchrash sabablarini ko'rsatib bergan. Uning fikricha, feodal nizolar, amirlikda muxolif lashkari haqida hattoki umumiy ma'lumotning yo'qligi, harbiy boshliqlarning tajribasizligi, jang qurollarining yaroqsizligi, adolatsizlikka asoslangan siyosiy-iqtisodiy tizim istiloni tezlashtirdi⁶. Ahmad Donish xalq hokimiyatchiligiga asoslangan ozod jamiyatni, fuqarolarning siyosiy jihatdan teng huquqli bo'lishini, qonun ustuvorligini, inson huquq va burchlari mushtarakligini, har bir aholi qatlami ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etish zarurligi kabi masalalarni ilgari surdi. Uning hatto, hajviy she'rlari, chizgan suratlari siyosiy hayotga hamda amir Doniyoldan amir Abdulahadgacha bo'lgan Buxoro amirlarini har birining boshqaruv yillari hamda davr tendensiyalari, jarayonlari xususida siyosiy tariximizga oid ulkan tadqiqotni amalga oshirdi va hukmdorlarning siyosiy portretlarini xolisona, obyektiv tasvirlay olganligi tahlil qilingan.

Ahmad Donning serqirra hayotiy himoya mahsuli hisoblangan "Navodir ul- vaqoye" ("Nodir voqealar") asari allomaning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, tabiiy-falsafiy yo'nalishga oid teran qarashlari hamda keng dunyoqarashini anglashda muhim o'rin tutadigan qomusiy asar hisoblangan. Aynan ushbu asar Donishni mohir islohotparvar, tarixnavis, tabiatshunos mutafakkir va qomusiy alloma sifatida namoyon bo'lgan. Asardagi maxsus risola va hikoyalar Donish ilmiy merosi tarixining turli davrlarida (1868-1873 y.) yozuv bo'lib, muallif uni 1875-1882 yillar oralig'ida qayta tahrir va tavsiflab 15 yil davomida to'liq kitob shakliga keltirgan. Bugungi kunda O'zbekiston, Tojikiston va Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari institutlarida risolaning 9 ta qo'lyozma nusxasi saqlangan. "Navodir ul-vaqoye" asarini shartli ravishda mazmunidan chiqib, uch qismga bo'lish mumkin. Birinchi – mamlakatda taraqqiyotni diqqat tutuvchi maxsus risola; -muallif o'zi bevosita guvohi bo'lgan voqealar to'g'ridan-to'g'ri safarnoma xotiralari; dunyo-tarbiyaviy- axloqiy joy ega bo'lgan hikoyalar bayoni.

Ahmad Donish ayni paytda nazariyotchigina emas, balki amaliyotchi bo'lib ham maydonga chiqdi. Davlatda amalga oshirilishi zarur bo'lgan demokratik islohotlar loyihasini ishlab chiqadi va uni hayotga tabiiq qilish uchun Buxoro amiriga tavsiya etadi. Donish loyihasiga asosan davlat bir guruh kishilar ehtiyojlarini qondirishi uchun emas, balki umumxalq manfaatlariga, avvalo keng xalq ommasini manfaatlariga xizmat qilishi uchun, mamlakatda farovonlik va to'kin-sochinlikni ta'minlashi uchun, yurtni obod etishi, raiyatga barcha imkoniyatlarni yaratib berishi uchun xizmat qilmog'i darkorligiga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, adolatni ta'minlashning birdan-bir yo'li-bu davlat rahbarining ma'rifatparvar, bilimdon, odil, el-yurt manfaatlarini yo'lida xizmat qiladigan, har qanday masalani hal qilishda o'zini oddiy fuqaro o'rnida ko'ra olishi davlat va jamiyat qudratining muhim omilidir deb takidlaydi. Agar adolat nuqtayi nazaridan o'ylab qaralsa, deydi Donish, har kim o'z yeri bilan qanoatlanishi kerak. Ahmad Donish siyosiy qarashlarining muhim jihati – hozirgi demokratik qadriyatlarga mos keladigan davlat boshqaruvini amalga oshirish g'oyasidir.

Xulosa

Ahmad Donish ta'biricha, mamlakatda fuqarolik jamiyatini qaror toptirish uchun qonun qabul qilish, qonunlarning ijrosini ta'minlash, ular ustidan nazorat o'rnatish, davlat ishlarini qattiq tartib bilan olib borish zarur. Shuning uchun u "davlat boshlig'i va lavozimdagi kishilar, majlislar o'tkazish tartibi, lavozimdagi kishilarning munosabati, oilaviy munosabati, boshqa

xalqlar bilan munosabatini tartibga solib turadigan qonun ishlab chiqarish kerak ”,[6,71] -deb yozadi.

REFERENCES

1. Ахмад Дониш. История мангитской династии. Перевод, предисловие и примечания И.А.Наджафовой. – Д.: Дониш, 1967. –С. 142.
2. Ахмад Дониш. Рисола ёхуд маиғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2014. –Б. 150
3. Ахмад Дониш. Рисола ёхуд маиғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2014. –Б. 150.
4. Ахмад Дониш. Рисола ёхуд маиғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи/. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2014. -В. 144.
5. Ахмад Дониш. История мангитской династии. Перевод, предисловие и примечания И.А.Наджафовой. –1967. – С. 142.
6. Ахмад Дониш. Наводирул вақое. -Т.: Фан, 1964. – Б. 650.
7. To‘rayev A. I. Buxoro vohasiga turkmanlarning ko‘chishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 134-139.
8. To‘rayev A. O ‘ZBEKISTON HUDUDIDA QADIMGI DAVLAT VA DAVLAT MUASSASALARINING VUJUDGA KELISHI //Modern Science and Research. – 2025. – Т. 4. – №. 1. – С. 723-729.
9. To‘rayev A. O ‘RTA OSIYODA AHAMONIYLAR DAVRI DAVLAT BOSHQARUVI //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 820-830.
10. To‘rayev A. BUXORO VOHASI HUNARMANDLARINING KASBIY TARIXIDAGI URF-ODAT VA UDUMLARI //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 633-642.
11. To‘rayev A. BUXORODAGI ME‘MORIY OBIDALARNING QURILISHIDA SHARQ VA G‘ARB AN‘ANLARINING UYG‘UNLIGI //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 11. – С. 842-849.
12. Ismoilovich T. A. Xorijiy Tadqiqotchilarning Asarlarida Buxoro Voha Aholisi Etnik Tarkibining Bayon Qilinishi //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 52. – С. 455-459.
13. Ismoilovich T. A. ZARAFSHON VOHASI DEHQONCHILIGINING TARIXIY ILDIZLARI //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 44. – С. 405-408.